

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2022yil III-chorakdagi faoliyati haqida qisqacha ma’lumot

2022-yil III- choragida Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashining oltita yig‘ilishi, jumladan, mahsulot va xizmatlar identifikatsiya kodlarini (MXIK) joriy etishda muammolar yechimi yuzasidan “aqliy hujum” shaklida hamda Davlat soliq qo‘mitasi rahbariyati bilan soliq ma’muriyatchiligining yangi chora-tadbirlarini muhokama qilish ishchi uchrashuvlari o‘tkazildi.

1. Kengash raisi etib – M.Perper, rais o‘rinbosari – S.Goloseva va Kengash mas’ul kotibi etib – D.Xoshimova saylandi.

2. Kengash faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar tasdiqlandi:

a) Kengash ishining reglamenti. U Kengash faoliyati qoidalarini belgilaydi: ish shakllari; tarkibi va organlari; rais, rais o‘rinbosari va kotibning funksional vazifalari; ishni rejalashtirish; Kengashning soliq organlari bilan o‘zaro hamkorligida ish olib borish; a‘zolarining faoliyati tamoyillari va shartlari, shuningdek ularning huquq va majburiyatlari; yig‘ilishlarni tayyorlash va o‘tkazish tartibi; ishchi guruhlar.

b) Kengashning ishchi guruhlari to‘g‘risidagi nizom. Ishchi guruhlarni tuzishning asosiy vazifasi Kengash majlislarida ko‘rib chiqilgan masalalar yuzasidan materiallarni ishlab chiqish va qarorlar loyihalarini tayyorlashdan iborat.

v) Kengash a‘zolarining axloq Kodeksi. Kodeks har bir a‘zosi uchun o‘z vakolatlarini amalga oshirishda majburiy bo‘lgan axloqiy me‘yorlar, jamiyatni va o‘z hamkasblarini hurmat qilish asosidagi xulq-atvor qoidalarini belgilaydi.

g) Maxfiy axborotni oshkor qilmaslik majburiyati. Kengashning barcha a‘zolari Kengash a‘zosining vakolatlarini amalga oshirishi munosabati bilan ishonib topshiriladigan yoki ma’lum bo‘ladigan maxfiy ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etmaslik majburiyatini imzolaydilar.

3. Kengash faoliyatining 2022-2023-yillarga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari belgilandi:

- soliq ma’muriyatchiligining raqamli tizimlari va vositalarini takomillashtirish;

- soliq ma’muriyatchiligiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish;

- soliq nazoratini takomillashtirish;

- soliq hisoboti tizimini takomillashtirish;

- soliq nizolarini sudgacha hal etish tizimini takomillashtirish;

- Davlat soliq qo‘mitasining faoliyati to‘g‘risida axborotlarning ochiqligini oshirish;

- soliq to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik tizimini takomillashtirish.

4. Soliq ma’muriyatchiligining raqamli texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ishchi guruh tuzildi.

5. Kengashning “2023yil uchun mo‘ljallangan soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari konsepsiyasi”ga ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Kengash takliflarini bu yerdan yuklab olish mumkin.

6. Davlat soliq qo‘mitasi raisi va Davlat soliq qo‘mitasi markaziy apparati rahbarlari ishtirokidagi ishchi yig‘ilishda 2023-yilga mo‘ljallangan soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish chora-tadbirlarini muhokama qilindi.

7. Mahsulotlar va xizmatlarning identifikatsiya kodlari (MXIK) bilan bog‘liq mavjud muammolar bartaraf etilgunga qadar texnik xizmatlar ko‘rsatish markazlariga (TXKM) nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan jazo choralarini qo‘llamaslik yuzasidan DSQ rahbariyatiga murojaat bilan chiqildi.

8. Kengash va soliq ma‘muriyatchiligining raqamli texnologiyalari bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan tashkil etilgan “aqliy hujum” uchrashuvida ishlab chiqilgan MXIKni joriy etish muammolarini hal qilish bo‘yicha takliflar Davlat soliq qo‘mitasi rahbariyatiga taqdim etildi. Unda: Kengashning 4 nafar a‘zosi, 10 nafar Davlat soliq qo‘mitasi va uning bo‘linmalari xodimlari, 21 nafar texnik xizmatlar ko‘rsatish markazlari xodimlari, “ CRPT TURON ” MCHJ va MXIKni joriy qilish va foydalanishda ishtirok etuvchi boshqa tashkilotlar vakillari ishtirok etdi. Kengash takliflarini bu yerdan yuklab olish mumkin.

9. Qog‘oz shaklida hujjatlar aylanuvini qisqartirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. Bu vazifa, jumladan, 2022yil 22avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va tadbirkorlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan ochiq muloqot chog‘ida belgilangan.

Jamoatchilik kengashi a‘zolari tomonidan Kengash a‘zosi Zafar Hoshimov taqdim etgan qog‘ozbozlikni qisqartirish to‘g‘risidagi Ma‘lumotnoma ma‘qullandi.

Hujjatda:

- ichki hujjatlarni imzolash va tan olishning mavjud amaliyoti tahlil qilingan (kassa, aktivlar harakati va xarajatlarni tan olish, xodimlar bo‘yicha);

- tashqi hujjat aylanishidagi muammolar (ishonchnomalar, tovarlarni kelib tushish holatini tan olish) ko‘rib chiqildi;

- hujjatlarni arxivlash va saqlash bilan bog‘liq muammolar tahlil qilindi;

- aniqlangan muammolarni hal qilish yo‘llari taklif etildi.

Qog‘ozbozlikni qisqartirish ma‘lumotnomasini bu yerdan yuklab olishingiz mumkin.

O‘tkazilgan tahlillar asosida “Elektron hujjat aylanishiga o‘tish bo‘yicha Kengash takliflari” ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Ularni bu yerdan yuklab olishingiz mumkin.

Kengash raisi

M.Perper

Kengash kotibi

D.Xoshimova